

HARBIY XIZMATCHILARNI KASBIY TANLOVIDA PSIXOLOGIK TESTLARDAN FOYDALANISHNING MUDOFAA VAZIRLIGI AMALIYOTI

Usarov Shuxrat Baxrullayevich

*kapitan O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura
tinglovchisi*

Bugungi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi harbiy sohaga ham ruhan barkamol, intellektual salohiyatli, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan, vatanparvar milliy kadrlarni saralash, ularni munosib lavozimlarga tayinlash hamda malakali kadrlar zahirasini yaratish dolzarb masalalardan biridir.

Harbiy sohaga intellektual salohiyatli, ruhan barkamol kadrlarni saralash jarayonidagi asosiy tadbirlardan biri nomzodlarni psixologik test sinovlaridan o'tkazish hisoblanadi. Psixologik testlar – bu vosita yoki atama sifatida qo'llanilganda tom ma'nodagi ish qurolidir. Har qanday vositani qurol hisoblasa bo'ladi. U foyda keltirishi ham ziyon yetkazishi ham mumkin. Farqi shundaki undan kim va qay yusunda foydalanishiga bog'liq.

Testlar kundalik hayotimizning ko'plab jabhalarida keng qamrovli muammolarga ijobiy yechim topishimizga yordam beradi. Ammo ba'zi testlarning noto'g'ri qo'llanilishi haqiqatga yaqin bo'lmagan natijalarni ko'rsatishi mumkin. Foydalanuvchi u yoki bu testning samarasini to'g'ri baholashi zarur. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlariga harbiy xizmatga nomzodlarni saralash tegishli me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilib kelinmoqda.


Saralash tadbirlarining muhim tarkibiy qismi nomzodlarni psixologik o'rganish jarayoni bo'lib, bunda mazkur tadbirlarning ilmiy-metodik ta'minoti harbiy-kasbiy saralash markazi tomonidan amalga oshiriladi. Psixologik test metodikalari ikki asosiy qismdan iborat bo'lib birinchi qism sinaluvchilarning intellektual salohiyati (umumiy qobiliyatlari) va ikkinchi qism nomzodlarning asab-ruhiy barqarorligini o'rganish bo'yicha so'rovnomanidan iborat shaklda tuziladi.

Psixologik test metodikalarining birinchi qismi subtest tuzilishiga ko'ra bir necha test batareyalaridan tashkil topadi. Bu esa nomzodlarning faqat bir turda emas, balki, turli vazifa materiallari (topshiriqlar) yordamida umumiyva maxsus qobiliyatlari darajasini aniqlash imkonini beradi. Harbiy sohada psixologik testlarni amaliyotga joriy etishdagi birlamchi muammolardan biri bu testlarni to'g'ri tanlash, harbiy xizmatchi shaxsining individual psixologik xususiyatlari – temperamenti, xarakteri, shuningdek ularning psixik bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira, diqqat, tafakkur) imkoniyatlaridan samarali foydalana olishi, ekstremal vaziyatlarda emotsional holatlarni boshdan kechirishda asab – ruhiy barqarorligini aniqlashga qanchalik mo'ljallanganligi va ilmiy asoslanganligidir.


Dunyo psixolog olimlari tomonidan yaratilgan zamonaviy va klassik testlar ilmiy-nazariy asosga ega bo'lsada ularni ona tiliga tarjima qilish va etnik milliy xususiyatlarga moslashtirish – modifikatsiyalash masalasi ancha mashaqqatli mehnatni talab etadi. Modifikatsiyalash jarayonida ayrim klassik testlarning savollari va javob variantlarining mantiqiy ketma-ketligi saqlangan holda yangi shakl va shamoilga keltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Namuna Kettelning aql-idrok testidan misol (asl va modifikatsiyalangan nusxalari)

R. KETTELNING “CFIT” NOMLANISHDAGI AQL-IDROK TESTI
 (asl nusxasi)



R. KETTELNING “CFIT” NOMLANISHDAGI AQL-IDROK TESTI
 (modifikatsiyalangan nusxasi)



Verbal testlar va so'rovnomalarni modifikatsiyalash jarayoni ham bir qator muammolardan holi bo'lmaydi negaki ayrim test yoki so'rovnomalarni test ishlab chiquvchining yashash hududidagi etnik xususiyatlarga mos tarzda tuzilgan bo'ladi.

Testlarni qayta ishlashdagi bosqichlardan biri - standartlashtirishdir. Standartlashtirish jarayoni o'z tarkibiga aniq ko'rsatmalar, foydalanilayotgan materiallarning tavsifi, topshiriqlarni bajarishga belgilangan vaqt chegaralari, sinovdan o'tayotgan shaxslarga beriladigan og'zaki yo'riqnomalar va vazifa namunalari ko'rsatish kabi me'yorlarni oladi.

Test sinovlarini standartlashtirishning muhim bosqichlaridan biri topshiriqlarni murakkablik darajasi bo'yicha me'yorlar belgilash hisoblanadi. Psixologik test topshiriqlari sinovlar o'tkazilishidan oldin murakkablik va muvaffaqiyatlik indeksi bo'yicha aniq standartlarga ega bo'lmaydi, bunda olingan natijalar sinaluvchilarning yakka (individual) ko'rsatkichlari bilan solishtirib ko'rilganidan so'nggina (aprobatsiyadan so'ng) murakkablik darajasi aniq qabul qilinadi. Testlarni standartlashtirish albatta representativ (bosh to'plamning barcha xossalarini o'zida mujassam eta oladigan tanlanma) guruh tarkibiga kiruvchi sinaluvchilarda test sinovlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Psixodiagnostik maqsadda yangi metodikalarni qo'llash to'g'risida masalalarni yechishdagi asosiy vazifalardan biri test sinovlarini standartlashtirish hamda

tanlovlardan farq qiladigan yangi populyatsiyaga moslashuvi bo‘yicha statistik ishlar hisoblanadi.

Bunday hollarda quyidagilar zarur: test sinovlari ko‘rsatkichlari va haqiqiylik alomatlari o‘rtasida statistik jihatdan ma‘noli natijalarni beruvchi tanlashda metodikaning haqiqiylikni tekshirish; test sinovlarining me‘yorlarini tekshirish; test sinovlarining haqiqiylik to‘g‘risidagi masalani yechgandan so‘ng tanlashni kengaytirish va ishonchlilikni belgilash hamda test sinovlarining ballarini empirik jihatdan taqsimlash; ishonchlilikni retest usuli yordamida tekshirish;

Umumiy populyatsiyadan tanlangan tanlama guruhidan takroriy retest topshiriqlarini o‘tkazish jarayonida ham bir qator kamchiliklar kuzatilishi mumkin (sinaluvchilarning qayta test topshirishda ishtirok eta olmasligi).

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “TEMURBEKLAR MAKTABI” HARBIY-
AKADEMIK LITSEYLARIGA NOMZODLARNI PSIXOLOGIK TESTDAN
O‘TKAZISH METODIKASIDAN**

Respondentlarni viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishining tavsifi

Viloyatlar nomi	N-soni	Foi zi
Buxoro viloyati	16	6,2
Navoiy viloyati	3	1,2
Samarqand viloyati	19	7,4
Qashqadaryo viloyati	23	8,9
Surxandaryo viloyati	12	4,7
Farg‘ona viloyati	43	16, 7
Andijon viloyati	13	5,1
Namangan viloyati	14	5,4
Toshkent viloyati	10	3,9
Toshkent shahri	86	33, 5
Xorazm viloyati	2	0,8
Sirdaryo viloyati	1	0,4
Jizzax viloyati	14	5,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1	0,4
Jami	257	100

Ushbu namunadan ko‘rinib turganidek, psixologik test metodikasining aprobatsiyasida kelib chiqishiga ko‘ra respublikamizning barcha viloyatlaridan sinaluvchilar ishtirok etgan bo‘lib, bu umumiy populyatsiyadan ajratib olingan tanlanma guruhining reprezentativligidan dalolat beradi.

Psixologik test metodikasi aprobatsiyasidan olingan birlamchi (ishlov berilmagan) ma'lumotlarni matematik statistik usullar orqali qayta ishlash jarayonida ham bir qator muammolarga duch kelishimiz mumkin (javoblar varaqalaridagi ma'lumotlarni sonli ma'lumot shakliga o'girish). Bu test metodikasini ishlab chiqish muddatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik test metodikasi aprobatsiyasidan olingan ma'lumotlar sonli ko'rinishga keltirilganidan so'ng, olingan sonli qiymatlar matematik statistik metodlar orqali tahlil qilinadi. Bunda asosiy e'tibor sonli ma'lumotlar o'rtasidagi munosabatlarga qaratilib standartlashtirish jarayoni o'tkaziladi.

Standartlashtirish deganda test sinovlarining protsedura va baholarini unifikatsiyalash, reglamentlash, yagona me'yorga keltirish tushuniladi. Bunda asosiy e'tibor sonli qiymatlarning moda, mediana va o'rtacha arifmetik qiymat (matematik kutishni baholash), dispersiya, asimmetriya, ekstsess ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratiladi.

Intellektning umumiy darajasini aniqlashda har bir vazifa bo'yicha olingan ballarni bir-biriga qo'shish natijasida hosil bo'lgan yakuniy baho belgilanib, so'ngra standart ko'rsatkich ko'rinishiga keltiriladi.

Natijalarni izohlashda testning tekshiriluvchilar oldiga qo'yayotgan o'ziga xos talablarini hisobga olish zarur:

- a) test ma'lum darajadagi tafakkur tezligini talab qiladi;
- b) ma'lumot darajasi test natijalariga ijobiy ta'sir qiladi, shu sababdan sinalayotganlarni yoshi teng bo'lgan shaxslar bilan emas, balki bir xil ma'lumotga ega shaxslar bilan taqqoslash maqsadga muvofiq bo'ladi;
- v) testdagi umumiy natijalar ijtimoiy-madaniy rivojlanish sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Psixologik test metodikasini ishlab chiquvchi mutaxassislar test vazifalarining murakkablik / muvaffaqiyatlilik darajasiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Test topshiriqlarining murakkabligi – test topshirig'ining tavsifi standartlashtirishni ushbu tanlov guruhida uning yechimini topishning statistik darajasini aks ettiradi hamda test metodikasining diagnostika sifatlarini ishlab chiqish va tekshirish uchun asosiy protseduralardan biri hisoblanadi.

Tanlab olingan respondentlar orasidan topshiriq yechimini topgan va topmagan shaxslarning ulushi test topshiriqlarining statistik murakkablik sifatidagi murakkablik ko'rsatkichi hisoblanadi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “TEMURBEKLAR MAKTABI” HARBIY-
 AKADEMIK LITSEYLARIGA NOMZODLARNI PSIXOLOGIK TESTDAN O‘TKAZISH
 METODIKASI**

Metodika topshiriqlarining murakkabligi ko‘rsatkichlari jadvali

Metodikaning topshiriqlari	Murakkablik ko‘rsatkichi (n - 257)
1 - topshiriq – “Umumiy tushunchalarni aniqlash”	0,78
2 - topshiriq – “O‘xshashliklar”	0,66
3 - topshiriq – “Sonli qator qonuniyatlari”	0,67
4 - topshiriq – “Arifmetik hisob”	0,85
5 - topshiriq – “Qonuniyatlarni o‘rnatish”	0,81
6 - topshiriq – “Soatlar”	0,75
Metodikaning barcha topshiriqlari uchun	0,75

Psixologik test metodikasini amaliyotga tadbiiq etishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlardan biri bu matematik statistik tahlil natijasida test batareyalari o‘rtasida korrelyatsion tahlil amalga oshirish zaruriyati hisoblanadi. Korrelyatsion bog‘lanish yo‘nalishi va darajasi (kuchi) bo‘yicha farqlanadi. Shuni ham inobatga olish kerakki, tanlab olingan respondentlar soni 100 nafardan ko‘p bo‘lsa, statistik ahamiyat $r \leq 0,01$ ga teng bo‘ladi va $r > 0,18$ ga teng korrelyatsiya koeffitsientining qiymati yuqori ahamiyatli korrelyatsiya sifatida qabul qilinadi.

Psixologik test metodikalarining ikkinchi qismidagi psixoemotsional barqarorlikni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar “Shaxsning xarakterologik aktsentuatsiyasi va asab-psixik beqarorlik” metodikasining modifikatsiyasi asosida ishlab chiqiladi.

Ko‘p hollarda asab-ruhiy beqarorlik xarakterning aktsentuatsiyalarida, ichkilikda, giyohvand moddalarni iste‘mol qilganda va ba‘zi bir ruhiy kasalliklarda namoyon bo‘ladi. Asab-ruhiy beqarorlikning paydo bo‘lishida asosiy shakllari yetarli darajada ijtimoiy jihatdan yetuk bo‘lmagan, axloqiy me‘yor va talablari, o‘zini tutish qoida va tartiblariga rioya etmaslik, intizomni, shaxslar o‘rtasida munosabatlarni va faoliyatni (mehnat va ta‘lim), kasallanishdan oldin va kasallik holatlarini buzish bilan bog‘liq.

Respondentlarning javoblari samimiyligini aniqlash uchun “Shaxsiyatning xarakterologik aktsentuatsiyasi va asab-ruhiy beqarorlik” metodikalariga “ishonchlilik” shkalasi qo‘shiladi.

“ARB-AM” metodikasining modifikatsiyasi uch bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda “Shaxsiyatga oid so‘rovnoma “ARB-AM” (asab-ruhiy beqarorlik – aktsentuatsiya-modifikatsiyalangan)” metodikasining matni davlat tiliga tarjima qilinadi, bunda tarjima qilingan matnning rus tilidagi matnga muvofiqligi, shkalalarni qayta tashkil qilinishi tekshiriladi, javoblar blankalari va kalitlarga ishlov beriladi;

ikkinchi bosqichda belgilangan tanlov guruhida psixologik test sinovlari o'tkaziladi. Bunda yuqorida takidlab o'tilgan respondentlarning reprezentativlik ko'rsatkichiga e'tibor qaratiladi.

uchinchi bosqichda "Shaxsiyatga oid so'rovnoma "ARB-AM" (asab-ruhiy beqarorlik – aktsentuatsiya-modifikatsiyalangan)" metodikasi bo'yicha psixologik test sinovlaridan olingan natijalarni standartlashtirish tadbirlari o'tkaziladi.

Standartlashtirish tadbirlari mobaynida olingan javoblarning ishonchsizligiga ko'ra ma'lum miqdordagi javob blankalari (ishonchlilik ko'rsatkichini inobatga olgan holda va boshqa kamchiliklar tufayli) yaroqsiz deb topiladi. Sababi shundaki, test sinovlaridan o'tuvchi respondent ijtimoiy jihatdan istalgan shaxs tipiga tegishli bo'lishga intilishi mumkin. "ARB-AM" metodikasi ko'rsatkichlari normallashtirilib jarayonda R.B. Kettell tomonidan taqdim etilgan "Standartlashtirilgan o'nliklar" usulidan foydalaniladi.

Psixologik test metodikalari qanchalik mukammal tuzilmasin ayrim kamchiliklardan holi bo'lmaydi bunda nafaqat test vazifalari balki test o'tkazish jarayonida uchraydigan muammolarga ham ahamiyat qaratish lozim. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Test rahbari tomonidan berilgan yo'riqnomaga qaramasdan sinovdan o'tuvchi shaxs qo'llanmani to'liq mazmunda tushunmay, qo'llanma talablariga zid ravishda javob bera boshlashi mumkin.

2. Test sinovlari aprotatsiyasiga noma'lum sabablarga ko'ra sinovlarda ishtirok etish xohishi yo'q bo'lgan respondentlarning jalb etilishi.

3. Ruhiy zo'riqishlarga bardosh berishi past bo'lgan shaxslarda o'z-o'zini boshqara olish jarayonida belgilangan buzilishlar yuzaga kelishi mumkin – ular hayajonlanadi va o'zlari uchun sodda savollarga xatolikka yo'l qo'ya boshlashi.

4. Test topshiriqlari bilan sinaluvchilarning oldindan tanish bo'lishi. Bu o'z navbatida test metodikasining ishonchliligini belgilashga salbiy tasiri.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, saralash jarayonida nomzodlarni psixologik o'rganish metodikasi harbiy sohadagi har bir yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari va mutaxassisliklarga qo'yilgan talablardan kelib chiqib alohida ishlab chiqilishi, har bir metodika qo'llanilishi bo'yicha mo'ljallangan toifa vakillarida aprotatsiyadan o'tkazilishi, ilmiy tahlil natijalari psixometriya talablari asosida standartlashtirilishi zarur. Psixologik test metodikalarini mazkur talablar asosida sifatli ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish harbiy mutaxassisliklarni yuqori intellektual salohiyatga ega, istiqbolli kadrlar bilan butlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

8. Словарь-спрочник по психодиагностикию 3-е изд – СПб.: Питер, 2007. 493 ст. - (Серия «Мастера психологии»).

9. “Harbiy-kasbiy saralash jarayonida psixologik testlarni qo‘llashning muammoli masalalari”. Uslubiy qo‘llanma. Mas’ul muharrir U. Fattaxov. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi nashriyoti -T.: 2023. 8-9 b.

10. Профессиональнш психологический отбор оперативных сотрудников уголовного розыска -Санк Петербург 2009г. Скалин Юрий Евгеньевич.

11. Профессиональный психологический отбор как цель, процесс и результат - Vestnik of Minin University. 2022.Д. В. Смирнов, С. Н. Сорокоумова.

12. Басов М.Л. Личность и профессия. Москва; Ленинград: Гос. изд-во, 1926 (Л.: тип. им. Н. Бухарина).

13. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности: учебное пособие для вузов. М.: ПЕР СЭ, 2001.

14. Большой психологический словарь / под редакцией Б.Г. Мещерякова, В.П. Зинченко. М.: АСТ, АСТ Москва, Прайм-Еврознак, 2009.

15. Винокуров Л.В. Психология работы с персоналом в трудах отечественных специалистов. СПб: Питер, 2001.

16. Геллерштейн С.Г., Коган В.М., Шпигель Ю.Н., Шпильрейн И.Н. Руководство по психотехническому профессиональному отбору / ред. И.Н. Шпильрейн. М.-Л.: Гос. изд-во, 1929.

17. Гуревич К.М. Профессиональная пригодность и основные свойства нервной системы. М.: Наука, 1970.